

EZGU NIYAT - MA'NAVIYAT

Har bir ezgu ish, savobli harakat, xayrli niyatni duo bilan boshlash xalqimizning azaliy odati. Unda yaxshilik va yangilikka intilishdek xalq manfaati uchun safarbarlik bor. Yangi o'quv yilini ham bag'ri kenglik, ochiq yuzlik, ko'tarinki kayfiyat, qo'l va ko'ngil ochiqligi bilan boshlash xayrlik va savoblikdir.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, ta'lim muassasasi, xususan "Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu - maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir". Demak, kelajagimiz taqdiri yoshlarga ta'limiy va tarbiyaviy oziq beradigan o'qituvchilarga bog'liq ekan, istiqbol poydevori mustahkam bo'lishi shart. Bu kuch va poydevor esa pedagogdir.

Bugun ertalabdan oq, institutimiz jamoasi uchun talabalar oshxonasida pedagoglarga yangi kuch va ruh baxsh etish maqsadida dasturxon yozilib, osh tarqatildi.



Tadbir oldidan, an'anamizga muvofiq qur'on tilovati qilindi. Bodomzor masjidi imom xatibining yordamchisi Abduhamid qori Bahromov qur'on qiroatidan so'ng yangi o'quv yili munosabati bilan barcha pedagoglarga sihat-salomatlik va kuch-g'ayrat, yurtimizga tinchlik va ofiyat, xalqimizga to'kin-sochinlik va farovonlik tiladi.

Badanning quvvati taom bilan, ruhning quvvati kalom bilan bo'lganidek, har ikkalasi ham chiroyli tarzda o'z ifodasini topdi. Qori akaga so'z qotdim. "Qayerdadir o'qiganim bor, pulingni yo'qotsang - hech narsangni yo'qotmabsan, vaqtingni yo'qotsang - ma'lum bir narsalarni yo'qotibsang, tetikligingni yo'qotsang - hamma narsangni yo'qotibsang", - nima dedingiz, qori aka?. - Haq gap, tetiklik kemtiklikni to'ldiradi, - deya miyig'ida kulimsirab qo'ydilar.



Yangi o'quv yili boshidan tan sihatlik va tetiklik ta'limning sifati va samarasiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Ustozlar, yangi o'quv yilingiz muborak bo'lsin!

Rahimboy Jumaniyozov Institut Matbuot xizmati rahbari